

2024  
2(16)



ISSN 2181-2551  
E-ISSN 2181-2561

**IQTISODIYOT VA TURIZM**  
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

**ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ**  
международный научно-  
инновационный журнал

**ECONOMICS AND TOURISM**  
international scientific and  
innovative journal

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



## MUNDARIJA

<b>Alisher Eshtaev, Khusniddin Egamnazarov.</b> Establishment Prospects of the Toprak-kala Historical Ethno-Museum .....	5
<b>Khashimov Pazliddin.</b> Economic development in latin american countries: its potential growth opportunities and prevalent challenges .....	11
<b>Ахмедова Азиза Тохировна.</b> Привлечение свободных денежных средств населения в инновационно-инвестиционный капитал .....	17
<b>Навруз-Зода Б.Н.</b> Роль информационных технологий при организации управленческого учета затрат в сфере обслуживания.....	25
<b>Бибутова Шахло Саъдуллаевна.</b> Совершенствование механизмов корпоративного управления в химической промышленности.....	31
<b>Мусаева Жамила Кароматовна.</b> Необходимость управления обновлением основных активов в промышленных предприятиях Узбекистана. ....	40
<b>Анваров Нодир Аллаёрович.</b> Анализ финансовых инструментов и механизмов поддержки агротуризма в Самарканде.....	50
<b>Ergashev R.X.</b> Qishloq xo‘jaligining meva-sabzavotchilik yo‘nalishlarida klaster-kooperatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirish masalalari .....	65
<b>Юлдуз Пирназаровна Урунбаева.</b> Аҳолининг маънавий-маърифий қадриятлари дунёсини бойитиш, ёш авлодни ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялашда музейларнинг аҳамияти .....	74
<b>Isayev Atabek Djurabayevich.</b> “Ko‘chish samarasi”ning narxlar barqarorligiga ta‘siri va uni raqamli iqtisodiyot sharoitida ta‘sirini kamaytirish .....	84
<b>Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna.</b> Insonni tadbirkorlik qobiliyati namoyon bo‘lishining an‘anaviy va zamonaviy shakllaridan foydalanishning konseptual asoslari.....	93
<b>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Atajanova Guli Maxsudovna.</b> Iqtisodiyot tarmoqlarida bozor xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari .....	106
<b>Ochilov Vahob Shavkatovich.</b> Yo‘l-qurilish sohasida davlat-xususiy sherikligining fransiya tajribasi .....	114
<b>Jurayev Navruz Jurayevich.</b> Oilaviy korxonani boshqarishning iqtisodiy-huquqiy xususiyatlari va uslubiy jihatlari.....	127
<b>Ergasheva Aziza Farmonovna.</b> Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari bozori holatini anketa-so‘rovi usuli orqali baholash .....	135
<b>Акбаров Хусниддинжон Мўйсин ўғли.</b> Ўзбекистон Республикасида валюта бозорининг жорий ҳолати ва уларнинг ривожлантириш истиқболлари .....	146
<b>Xodjayev Anvar Rasulovich.</b> Xalqaro franshizlarni jalb qilish uchun raqamli marketing vositalari va usullaridan foydalanish istiqbollari .....	155
<b>Сафаров Фарход Анварович.</b> Роль и эффективность инноваций в развитии сферы услуг .....	164

UDK:338

*Ergasheva Aziza Farmonovna*

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti, ORCID-0000-0003-1804-6579,  
[azizaergasheva1986@gmail.com](mailto:azizaergasheva1986@gmail.com),

## BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORI HOLATINI ANKETA-SO‘ROVI USULI ORQALI BAHOLASH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar faoliyati o‘rganilgan. Viloyatda faoliyat yuritib kelayotgan hunarmandlarning katta qismini xotin-qizlar va yoshlar tashkil etadi. Ularning jahon standartlariga mos ravishda mahsulot yaratishlari, uni iste’molchilarga yetkazib berishda malakalarining kamligi, hunarmandchilik mahsulotlari bozoridagi yangiliklardan xabarsiz qolganliklari tufayli bir qancha muammolarga duch kelmoqdalar. Shularni inobatga olib hunarmandlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, kerakli nazariy, amaliy taklif va tafsiyalar berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Hunarmandchilik mahsulotlari, hunarmandchilik mahsulotlari bozori, hunarmandchilik turlari, hunarmandlar avlodi, biznes hajmi.

### ASSESSMENT OF THE STATE OF THE HANDICRAFT PRODUCTS MARKET IN BUKHARA REGION THROUGH THE QUESTIONNAIRE METHOD

**Abstract.** This article examines the activities of artisans working in Bukhara region. Most of the artisans working in the province are women and young people. They face a number of problems due to their lack of skills in creating products in accordance with world standards, their lack of skills in delivering them to consumers, and being unaware of the news in the craft products market. Taking this into account, a survey was conducted among the craftsmen, and necessary theoretical and practical suggestions and explanations were given.

**Key words:** Handicraft products, handicraft market, types of handicrafts, generation of handicrafts, business volume.

### ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ РЫНКА РЕМЕСЛЕННЫХ ИЗДЕЛИЙ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ МЕТОДОМ АНКЕТЫ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается деятельность ремесленников, работающих в Бухарской области. Большинство ремесленников, работающих в провинции, — женщины и молодые люди. Они сталкиваются с рядом проблем из-за неумения создавать продукцию в соответствии с мировыми стандартами, неумения доставлять ее потребителю, неосведомленности о новостях на рынке крафтовой продукции. Учитывая это, среди мастеров был проведен опрос, даны необходимые теоретические и практические предложения и пояснения.

**Ключевые слова:** Ремесленные изделия, ремесленный рынок, виды ремесел, поколение ремесел, объем бизнеса.

**Kirish.** Hunarmandchilik va uning turizm rivojlanishdagi roli barcha mamlakatlarning kuchli madaniy merosining bir qismi sanaladi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlari hunarmandchilikni turizmni rivojlantirishning asosiy markazi deb bilishadi va yirik hunarmandchilik ishlab chiqarish markazlari yonida turizm ob'ektlarini tashkil etib kelishgan. O'zbek hunarmandlari dunyoga hunarmandchilik mahsulotlari xilma-xilligi, nafisligi, o'zlarining mahorati bilan mashhur. Hunarmandchilik nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarini, balki insonning estetik istagini ham qondiradi.

Hunarmandchilikda biznes muhitini yaxshilash va kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport salohiyatini oshirish bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda Hunarmandlar uyushmasi tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar umumiy soni 1146 nafarni tashkil etadi[1].

Buxoro azaldan o'zining tarixi, ayniqsa rivojlangan hunarmandchiligi bilan tarixan, dunyoda o'z ahamiyat va mavqeiga ega bo'lib kelgan. 2023-yil oktyabr holatiga ko'ra "Hunarmand" uyushmasi Buxoro viloyat boshqarmasida 2224 nafar hunarmandlar a'zo bo'lib, shundan 1246 nafari 56,03 % xotin-qizlar va 497 nafari 22,35 % yoshlarni tashkil etadi. Ularga 5812 nafar shogirdlar birlashtirilgan. Viloyatda 2023-yil 10 oy davomida hunarmandchilik yo'nalishida 4550 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali bandligi ta'minlandi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish ilmiy-nazariy va metodologik muammolarini tadqiq etishga g'arb olimlaridan Suntrayuth R., Jaitly J. F Codignola., US Yadav, R Tripathi, MA Tripathi, GP Yadav., A Anand, MN Gayatri, N Narain, S Mishra, S Sood., Council C. [2], rossiyalik olimlardan Седых И. А., Жумадилова Ж. А., Водянова И. Н., Волков В. В., Белова Т. В., Гаврилов Д. Е. [3] va boshqa olimlar muhim hissa qo'shishgan.

O'zbekiston olimlari va mualliflari tomonidan hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari juda kam o'rganilgan. Mamlakatimizning aksariyat olimlari asosan hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga hissa qo'shganlar. Ular orasida Mominovna Q. M., Abdurashidovich M. A., Gulamdjanovna X. M. [4]

Biroq, O'zbekistonda oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, bu jarayonni takomillashtirish asosida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari deyarli tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro viloyati olingan bo'lib, tizimli va kompleks yondashuv, funksional yondashuv, analiz va sintez, monografik tahlil, ilmiy abstraksiyalash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatuv, so'rovnoma o'tkazish, dastlabki ma'lumotlarni yig'ish kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Hunarmandchilik – yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyurtmalari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyati hisoblanadi[5]. Hunarmandchilik deganda avtomatlashtirilgan mexanizmlardan foydalanmasdan, ko'pincha an'anaviy usullardan foydalangan holda qo'lda tayyorlangan hunarmandchilik buyumlari tushuniladi. U to'qimachilik, kulolchilik, zargarlik buyumlari va yog'och buyumlarni o'z ichiga oladi. Hunarmandchilik mahsulotlari yog'och, loy, tolalar, plastmassa va metall kabi turli xil tabiiy va sintetik materiallardan foydalangan holda yaratiladi. Ular uy bezatish, moda aksessuarlari, bolalar uchun o'yinchoqlar, mebellar, diniy marosimlar uchun har xil anjomlar, sayyohlar uchun har xil suvenirlar tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Shuningdek, mamlakat madaniyatini saqlash, ta'lim vositalari, jamoat qurilishi va xalq hunarmandchilikning ajralmas qismidir. Hunarmandchilik faoliyati noyob va ekologik toza mahsulotlar yaratib, hunarmandlarning imkoniyatlarini kengaytirish, madaniy merosni targ'ib qilish va qashshoqlikni kamaytirishga ham yordam beradi[6].

Jahon hunarmandchilik bozori hajmi 2023-yilda 830,4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2024-2032 yillarda bozor 9,2% o'sish sur'atini ko'rsatib, 2032-yilga kelib 1,864,1 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda[7]. Noyob qo'lda ishlangan mahsulotlarga iste'molchilar talabining ortib borayotgani, elektron tijorat platformalari sonining ko'payishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan tashabbus va qonunlarning kuchayishi, madaniy tadbirlar va festivallarning ko'payishi bozorni rivojlantirayotgan asosiy omillaridan sanaladi[8].

2023-yil o'n oy davomida 387 nafar ishsiz fuqarolar subsidiya mablag'i evaziga uyushmaga a'zo bo'lib, o'z hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlashga erishdilar[9]. Hozirgi davrda ham Buxoro viloyati hunarmandchilikning an'anaviy va zamonaviy turlari rivojlanmoqda. Masalan, Buxoro viloyatida hunarmandchilik faoliyatining gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar, kashtachilik, qimmatbaho metaldan yasalgan zargarlik buyumlari, zardo'zlik buyumlari, miniatyura, rang-tasvir, naqqoshlik va bo'yoqli naqshlar, kandakorlik, misgarlik buyumlari, qo'lda gilam to'qish va charm mahsulotlari kabi hunarmandchilik yo'nalishlari keng rivojlangan bo'lib, ayni damda davlat ro'yxatidan o'tmasdan, norasmiy hunarmandchilik faoliyati

bilan shug'ullanayotganlar bilan ishlash natijasida 2023 yil 10 oylikda 532 nafar fuqaro ro'yxatdan o'tkazilib, davlatimiz tomonidan hunarmandchilik sohasiga berilgan imtiyozlardan foydalanishiga ko'maklashildi[10,11].

Shuningdek, Buxoro viloyatida hunarmandlarni qo'llab quvvatlash maqsadida doimiy ravishda Xalqaro "Ipak va Ziravorlar" festivali, Xalqaro ananaviy "Tasviriy va amaliy san'at" festivali, "Kashtado'zlar va xalq o'yinlari" festivali, "Xalqaro Zargarlik va Zardo'zlik, kashtachilik san'ati festivali", "Buxoro hunarmandlari kuni", "Nasriddin afandi kuni" festivali, "Xalqaro Zargarlik va Zardo'zlik, kashtachilik san'ati forumi, "Turkiy xalqlar hunarmandchiligi" mavzusida forumi kabi turli xil madaniy tadbirlari, ko'rgazma savdo yarmarkalari va festivallari o'tkazib kelinmoqda[12].

Keyingi yillarda zargarlik san'ati an'alarini qayta tiklash, mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash, shuningdek, aholining sifatli zargarlik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan ko'plab ishlar qilinmoqda[13].

Shu bilan bir qatorda, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, xom ashyo xaridi, ishlab chiqarilgan mahsulot savdosining katta qismi yashirin tarzda amalga oshirilayotgani ham sir emas. 2023-yil 14-noyabr kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilgan «O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi mazkur yo'nalishdagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir[14].


Tadqiqot maqsadi hunarmandchilik mahsulotlari bozorida Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar faoliyati o'rganilib, ularning muammolari aniqlanib, muallif tomonidan takliflar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 iyundagi PF-91-sonli farmoni bo'yicha hunarmandchilik faoliyatining 43 ta yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritish mumkin[15]. Ushbu qarorning 3-ilovasi 5-bandiga asosan Buxoro shahrida 16-17-18 iyun kunlari Xalqaro "Ipak va Ziravorlar" festivali o'tkazildi. Festival doirasida 6 ta qo'shni davlatlardan 20 nafar usta hunarmandlar hamda 200 ga yaqin mahalliy hunarmandlar ishtirok etishdi. Shuningdek, Buxoro viloyatida jami 10 ta Hunarmandchilik markazlari tashkil etilgan[16,17].

Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida Respublikamizda hunarmandchilikni rivojlantirish uchun yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalanish va talabi to'grisidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun so'rovlar, munosabat, intervyular orqali ular faoliyati haqida asosiy ma'lumotlar, kuzatuvlar tashkil etish mumkin. Bugungi kunda onlayn so'rovlar tadqiqotchilar orasida tobora ommalashib bormoqda. Biz ham dissertasiyada shu usuldan foydalanishni afzal ko'rdik. Onlayn so'rovlarni internet orqali so'rovnoma shaklida o'tkazdik[18]. So'rovnoma davomida jami 103 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlar viloyatda faoliyat yuritayotgan hunarmandlar orasida 2023 yil sentyabr-oktyabr oylarida o'tkazildi.

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomaning tahlil qilishiga ko'ra unda qatnashgan 103 kishining 25,2%i tikuvchilik, 21,4%i zargarlik, kulolchilik, temirchilik, qo'rako'chilik, naqqoshlik va miniatyura, kashtachilik, mis kandakorlik, hattotlik va tosh o'ymakorligi kabi hunar egalari hisoblanadi(1-rasm).


## 1.Siz qaysi hunarmanchilik turi bilan shug'ullanasiz?



## 1-rasm. So'rovnomada ishtirok etgan hunarmandlarning faoliyat turi bo'yicha tarkibi

Biz so'rovnomada hunarmandlarni yosh tarkibini aniqlash uchun respondentlarga murojaat etdik. Respondentlar yoshi tahliliga keladigan bo'lsak, ular segmentasiyasi quyidagicha: 42-50 yosh atrofda gilar 23%ni, 26-33 yosh atrofda gilar 22%ni, 51-60 va 34-41 yosh atrofda gilar 19%ni, 18-25 yosh atrofda gilar 12%ni, shuningdek qolgan respondentlar 61 yoshdan yuqori hisoblanadi(2-rasm).


## 2.Yoshingiz?



## 2-rasm. Hunarmandlarning yosh bo'yicha segmentasiyasi

Hunarmandlar faoliyat ko'rsatayotgan hududidi bo'yicha quyidagi tahlillarni keltirish mumkin: 62% hunarmand Buxoro shahridan, Qorako'l, Qorovulbozor, Romitan, Shofirkon, Vobkent, Buxoro, G'ijduvon, Jondor, Kogon, Olot tumanlari va Kogon shahridan qatnashgan(3-rasm).


## 3. Manzilingiz?



## 3-rasm. Hunarmandlarning hududiy joylashuvi segmentatsiyasi

Hunarmandlar biznes hajmi haqida ma'lumot olish maqsadida berilgan sizning biznes hajmingiz qancha degan savolga respondentlar quyidagicha javob berishgan: 56% respondent 100 million so'mdan kam, 26% respondent 100-500 million so'm atrofida, 11% respondent 500-1000 million so'm va 7% respondent 1mlrd.dan ortiq pul aylanmasiga ega ekanligi haqida ma'lumot berishgan(4-rasm).


4. Sizning biznesingiz hajmi?



4-rasm. Respondentlarning pul aylanmasi bo'yicha tarkibi

Ushbu so'rovnomada qatnashgan hunarmandlarning 39%i 5 nafargacha xodimga ega, 16%i 10 nafargacha, 18%i 10 nafardan ziyod ishchiga ega ekanligi haqida ma'lumot berishdi(5-rasm).


5. Sizda nechta xodim bor?



5-rasm. Hunarmandchilik korxonalarida xodimlar

Hunarmandlarning kelgusi 5 yil ichida mahsulot bozori soni bo'yicha tarkibibo'yicha so'ralgan so'ronoma bo'yicha quyidagicha xulosaga kelish mumkin. 56% respondent xorijiy bozorni, 40% respondent mahalliy bozorni, 4% respondent ham mahalliy, ham xorijiy bozorni ko'rsatishgan(6-rasm).


6. Kelgusi 5 yil ichida mahsulot sotuv bozoringiz:



### 6-rasm. Hunarmandlar kelgusida mahsulot bozori tahlili.

Hunarmandlar ichida elektron savdoni tashkil etganligi bo'yicha savol tahlili bo'yicha 56% respondent elektron savdoni yo'lga qo'yganligini, 44% respondent elektron savdodan foydalanmasligini ta'kidlab o'tishgan(7-rasm).


7. Siz elektron savdoni yo'lga qo'ygansiz?



### 7-rasm. Hunarmandlar elektron savdosi tashkil etganligi tahlili.

Hunarmandlarning mahsulotlari brend sifatida shakllanganligi to'g'risidagi so'rovdan hunarmandlarning 60%i shakllantirish niyatida ekanligi, 37%i brend sifatida shakllanganligini, 3%i brend sifatida shakllanishi shart emasligini ta'kidlab o'tishgan(8-rasm).

8. Siz hunarmandchilik mahsulotingizni taniqli brend sifatida qanday tasavvur qilasiz?




### 8-rasm. Hunarmandchilik mahsulotlari brend sifatida tanilishi tahlili.

Keyingi savolda hunarmandlardan faoliyati rivojida oila a'zolarining o'rni so'ralganda 46% respondentlar faoliyati oilaviy va yollanma ishchi xodimlardan iborat ekanligini, 39% respondentlar korxonalarini oilaviy ekanligini ta'kidlab o'tishgan(9-rasm).




9. Siz faoliyatingiz rivojiga oilangiz a'zolarini o'rnini qanday baholaysiz?



9-rasm. Hunarmandlar faoliyatida oila a'zolarining o'rnini.

Siz hunarmandlarning nechanchi avlodidansiz degan savolga respondentlar quyidagicha javob berishgan: 34%i birinchi avlodga, 19%i uchinchi avlodga, 18%i ikkinchi avlodga, 5%i beshinchi avlodga, 3%i oltinchi avlodga, 4%i yettinchi, 3%i o'ninchi avlodga tegishli ekanligini ta'kidlab o'tishgan(10-rasm).


10. Siz hunarmandlarning nechanchi avlodidansiz?



10-rasm. Hunarmandlar kelib chiqish avlodi tahlili.

Ustoz-shogird an'anasi va yangi hunar egasini tarbiyalash bo'yicha qilingan ishlar bo'yicha respondentlar 77%i ustoz-shogird an'anasi o'rnatilganligini, 12% pullik kurslar tashkil etganligini, 10% respondentlar bunga ehtiyoji yo'qligini ta'kidlab o'tishgan(11-rasm).

11. Ustoz-shogird an'anasi va umuman yangi hunar egasini tarbiyalash qanday yo'lga qo'yilgan?




11-rasm. Hunarmandlar faoliyatida ustoz-shogird an'analari o'rnatilganligi tahlili.

Hunarmandlar o'rtasida aynan qaysi yo'nalishini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomada 47% respondentlar eksport faoliyatini kengaytirishni, 27% respondentlar

innovatsion texnologiyalarni joriy etishni, 22% respondentlar reklama va qayta aloqani o'rnatishni, qolgan respondentlar chet elda hunarimiz nufuzini oshirish bo'yicha ovoz berishgan(12-rasm).


#### 12. Faoliyatingizni qaysi yo'nalishda rivojlantirmoqchisiz?



#### 12-rasm. Hunarmandlar faoliyatini rivojlantirishi kutilayotgan yo'nalishlar tahlili.

Hunarmandlar faoliyatida ijtimoiy tarmoqning o'rni bo'yicha respondentlar 96%i ijobiyligini, 4%i salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab ovoz berishgan(13-rasm).


#### 13. Ijtimoiy tarmoq faoliyati sizni ishingizga qanday ta'sir ko'rsatadi?



#### 13-rasm. Hunarmandlar faoliyatida ijtimoiy tarmoq ta'siri tahlili.

Sizni ko'proq nima tashvishga soladi degan savolga respondentlar biznes muhiti 59 %, qonunchilik 24 %, kadr qo'nimsizligini bartaraf etish 24 %, biznesning rentabelligi 26 %, keyingi avlod 39% respondentlarni xavotirga solishi ta'kidlab o'tilgan(14-rasm).

#### 14. Sizni ko'proq nima tashvishga soladi? Tegishli hamma narsani belgilang.



#### 14-rasm. Hunarmandlar faoliyatida tashvishga soladigan muammolar tahlili.

Siz hunarmandchilikni rivojlantirish uchun nimalar yetishmaydi deb o'ylaysiz? Degan savol bo'yicha viloyatda faoliyat yuritayotgan hunarmandlar faoliyatida quyidagi kamchiliklarni keltirgan:

- bilim va malakaning yetishmasligi;
- haqiqiy hunarmand ustalar sonining kamligi;
- do'konlar ochish uchun joy tanqisligi;
- shogirdlarni hunarmandchilik yo'nalishlariga qiziqtirish muammosi;
- dunyo taniydigan ustalarning juda ozligi;
- shogirdlarning kamligi;
- hunarmandlarda harakat, izlanish, o'z ustida ishlash darajasi juda pastligi;
- hunarmandlar faoliyatida ko'p ta'qiq borligi;
- yetarlicha e'tibor va ajratilgan mablag'larni egasiga yetib bormasligi;
- malakali kadrlarning yetishmasligi;
- yoshlarda hunarga qiziqish pastligi;
- reklama xizmatining qimmatligi, brend yaratishdagi qiyinchiliklar va xorijga eksport qilishda tajribaning kamligi;
- bank operasialar bilan muammolarda, gaz bilan ta'minlash xizmatidagi, kredit olish muammolarning borligi;
- ba'zi hunarmandchilik turlarining yo'qolib ketishi;
- eksportda hisob-kitob operasialarining murakkabligi;
- hunarmandchilikning sanoatlashuvi;
- hunarmandchilik mahsulotlari bozorida mavsumiylikning mavjudligi;
- xom-ashyo monopoliya mavjudligi, xom ashyo yetishmasligi;
- transport xarajatlarining yuqoriligi kabi muammolar.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish bo'yicha quyidagi takliflarni ko'rsatishimiz mumkin:

- sotuv bo'yicha hunarmandlarga ko'maklashish kerak;
- ortiqcha qog'ozbozlikni yo'qotish;
- ko'proq reklamalar tashkil etish;
- yosh hunarmandlarga ko'proq e'tibor berish;
- hunarmandga davlat tomonidan moddiy yordam olish;
- xalqaro ko'rgazmalarga ko'proq borishni tashkil etish;
- mamlakatlararo o'zaro tajriba almashishni tashkil etish;
- chet elda o'zbek hunarmandchiligini rivoji uchun ustaxonalar tashkil qilish kerak;
- eksportni yo'lga qo'yish kerak;
- imtiyozli kreditlar va subsidialarni ko'paytirish, kreditlar foizini kamaytirish kerak;
- xalqaro festivallarga qatnashishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- yangi texnologiyalarni olib kirish kerak;
- xorij tajribalarini tadbiq etgan holda hunarmandchilikni rivojlantirish;
- kengayish uchun qulay ish joylarni tashkil etish;
- hunarmandchilik maktablari yaratib hunarni keyingi avlodga qoldirish;
- kasbni davom ettirishni yo'lga qo'yish;
- yangi sotuv joylarini tashkil etish;
- tashqi bozorga chiqish imkoniyatiga chiqishga sharoit yaratish;
- xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini kengaytirish;
- xom-ashyo narxining oshib borishi nazoratga olish;
- infratuzilmani yaxshilash orqali turistlarni ko'proq jalb qilish;
- o'zimizda xalqaro galereyalar tashkil etish;
- eksport imkoniyatlarini oshirish;
- transport xarajatlarini qoplashni tashkil etish;
- charmdo'zlik maktabini yaratish;
- bozorda hunarmandchilik mahsulotlariga talabni kuchaytirish;
- did va sifat mezonlarini belgilaydigan san'atshunos mutaxassilar bilan hunarmand

uyushmasi yaqindan ishlab, alohida bo'lim ochilsa, yosh avlodni ijodga yo'naltirishga yordam beradi. Qolaversa, ijodkor ustalar va biznes maqsadini ko'zlagan sex va hajmli ishlab chiqaruvchilardan farqlab alohida ta'kidlab ko'rsatilishi juda muhim. Bu bilan ijod ahli ham himoyalana ham keng ommani didsizlikdan saqlashi mumkin. Undan tashqari, dunyoga ochilib borilayotgan Yangi O'zbekistonni, dunyo sahnasida yuqori saviyasini ko'rsatishga katta madad va sohani rivojiga katta turtki beradi.

#### **Xulosa.**

Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va hunarmandlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini taklif etgan bo'lar edik:

- mamlakat hududida hunarmandchilik stipendiyasi va xalqaro dasturlar tashkil qilinishi va hunarmandlarni jalb qilishi kerak;

- O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan xalqaro aloqalari yaxshi bo'lishi kerak, chunki mavjud bo'lganda bir mamlakatning madaniyati va an'alarini boshqa mamlakat bilan to'g'ri almashish, keyin qilish hunarmandchilik mahsuloti eksporti ushbu mamlakatlarda mavjud bo'ladi. Ba'zi mamlakatlarda eksport-import siyosati an'alarini yo'lga qo'yish, hunarmandchilik sanoati bilan bog'liq yumshoq siyosat amalga oshirilishi kerak;

- maktab o'quv dasturida aniq fanlari kabi, hunarmandchilik ham bo'lishi, maktab ta'limiga fan sifatida kiritilishi kerak;

- onlayn hunarmandchilik kurslarini tashkil etish orqali aholini qiziqtirib, hunar egallashga da'vat etish;

- gazeta, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda har kuni o'zlarining mahalliy hunarmandchilik sanoati mahsulotlarini nashr etishlari kerak;

- sohada litsenziyalash tizimi butunlay olib tashlanishi kerak, ushbu mahsulotlar litsenziya tizimi o'rniga sertifikatlashtirishni rivojlantirishni rag'batlantirishi kerak;

- eksportni kuchaytirish uchun import qiluvchilar va eksport qiluvchilar uchun tegishli shartlar bo'lishi kerak: (a) har qanday mahsulot eksportchisi 20% hunarmandchilik mahsulotlarini boshqa mamlakatda sotadi; va (b) har qanday import qiluvchi hamkorlikni rivojlantirish uchun mahsulot O'zbek hunarmandchilik mahsulotlarining kamida 24 foizini import qilishi kerak bo'ladi;

- craft qishloqlari va hunarmandchilik universitetlari tashkil etilib oliy ma'lumotli, yuqori malakali kadrlar sohaga jalb qilinishi kerak.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki hunarmandlar har tomonlama tashqi yordamga muhtoj va ular faoliyatini rag'batlantirish davlat darajasida tashkillashtirilsa samaradorligi ancha yuqori bo'ladi.

Shunday qilib, hunarmandchilikda raqamli transformatsiya jarayonlari yuqori imidjga ega bo'lsa, eksport imkoniyatlarini oshirilsa, hunarmandchilikka oid maktablar tashkil etilsa, ko'proq sotuv joylarini tashkil etilsa, mamlakatlararo o'zaro tajriba almashishni tashkil etilsa hunarmandlar aholining hayot sifatini oshirishga, jahon iqtisodiyotida hunarmandchilik faoliyatining ahamiyatini oshirishga olib keladi, shuningdek, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini raqamlashtirish natijasi, mijozlarning sodiqlik darajasining oshishi, ularning ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish, vaqtni tejash, aholi turmush sifatini yaxshilashni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. <https://hunar.uz/>
2. Suntrayuth R. Collaborations and design development of local craft products: Service design for creative craft community //International Journal of Creative and Arts Studies. – 2016. – T. 3. – №. 2. – C. 1-12., Jaitly J. Crafts as industry //SEMINAR-NEW DELHI-. – MALYIKA SINGH, 2005. – T. 553. – C. 14., Codignola F. The art market, global economy and information transparency //Symphonia-Emerging Issues in Management. – 2003. – №. 2. – C. 73-93., Yadav U. S. et al. First Global Handicraft Index 2022: World's first GHI for growth and promotion of our craft, Tradition, and Skill of Artisan at the Global level., Anand A. et al. Impact of COVID-19 pandemic on micro, small, and medium enterprises (MSMEs): India report. – 2020., Council C. Consuming craft: The contemporary craft market in a changing economy. – 2009.
3. Седых И. А. Рынок народно-художественных промыслов //URL: <https://www.>

hse.ru/data/2021/09/15/1472121216/%D0%A0%D1%8B%D0%B%D0%BE%D0%BA\_%D0%BD%D0%B0%D1. – 2021. – Т. 80. – С. D0., Жумадилова Ж. А. Ремесленные рынки в странах центральной азии. проблемы и перспективы развития //Известия Кыргызского государственного технического университета им. И. Раззакова. – 2013. – №. 29. – С. 280-282., Водянова И. Н. Новая ремесленная экономика как вид малого предпринимательства //Проблемы современной экономики. – 2010. – №. 2. – С. 206-209., Волков В. В., Белова Т. В. ОБЩЕСТВА ВЗАИМОПОМОЩИ РЕМЕСЛЕННЫХ РАБОЧИХ В ЕВРОПЕЙСКОЙ РОССИИ ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ XIX в. КАК ФЕНОМЕН ИНФРАСТРУКТУРЫ РЫНКА ТРУДА ПЕРЕХОДНОГО ТИПА //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2017. – С. 29., Гаврилов Д. Е. Экономическая природа и особенности развития ремесленной деятельности : дис. – диссертация... кандидата экономических наук/ДЕ Гаврилов. Екатеринбург, 2012.

4. Mominovna Q. M. Hunarmand uyushmasi–milliy hunarmandchilik siyomosi //Conferencea. – 2022. – С. 34-36., Abdurashidovich M. A. MILLIY HUNARMANDCHILIK–KICHIK BIZNESNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 23-26., Gulamdjanovna X. M. Turizm tarmog'ida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari //Journal Of Economy, Tourism And Service. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 107-112., Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2021.

5. <https://www.imarcgroup.com/handicrafts-market#:~:text=Market%20overview%3A,9.2%25%20during%202024%2D2032.>

6. Лесовская М. И. Ремесло в постиндустриальном обществе: на гребне «Третьей волны» //Социально-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ. – 2017. – №. 1 (5). – С. 29-42.

7. Шайгозова, Ж. Н., Хазбулатов, А. Р., & Наурзбаева, А. Б. (2022). ОПЫТ СОХРАНЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ТРАДИЦИОННЫХ РЕМЕСЕЛ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ (НА ПРИМЕРЕ ТАДЖИКИСТАНА И УЗБЕКИСТАНА). Вестник Казахского национального женского педагогического университета, (3), 35-45.

8. Кульсариева, С. П., & Ибрагимов, А. И. (2023). ТРАДИЦИОННЫЕ РЕМЕСЛА В КАЗАХСТАНЕ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ. Journal of History/Habarşy Tarihi Seriâsy., 109(2).

9. Uzbekistan, B. (2021). Ergasheva Aziza Farmonovna. ВОЗМОЖНОСТИ И ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ, 24.

10. Эргашева, А. (2023). Хунармандчилик махсулотлари бозорида хизмат кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 34(34).

11. Эргашева, А. (2023). РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРИВИЛЕГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ РЕМЕСЕЛ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).

12. Эргашева, А. (2023). Механизмы развития малого бизнеса и предпринимательства в сфере ремесел в махаллях. центр научных публикаций (buxdu. uz), 36(36).

13. Эргашева, А. (2023). Hunarmandchilik sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 35(35).

14. Эргашева, А. (2023). HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIGA XIZMAT KO'RSATISHNING RIVOJLANISHINI HOZIRGI DARAJASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 32(32).

15. Zayni o'g'li, N. S., & Ergasheva, A. F. (2023). The current state of the online tourism market of uzbekistan and the use of marketing methods in its development. journal of innovations in scientific and educational research, 6(3), 227-230.

16. Эргашева, А. (2023). Analysis of current problems and opportunities in the development of the national tourism industry of uzbekistan. центр научных публикаций (buxdu. uz), 29(29).

17. "Hunarmand" uyushmasi Buxoro viloyat boshqarmasi ma'lumotlari

18. [https://docs.google.com/forms/d/1E7DdUybF7NldSsnHaeh9Y4\\_Jm1SZI9lnvI1TB\\_8bdPI/edit](https://docs.google.com/forms/d/1E7DdUybF7NldSsnHaeh9Y4_Jm1SZI9lnvI1TB_8bdPI/edit)